



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ismadiyorov Abdug'affor Abdujabbarovich

*IV akademiyasi xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasini o'qituvchisi*  
*a44398367@gmail.com*

## OLIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION MUHITNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lismuassasalaridan, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash kompetentligiga ega mutaxassislarni tayyorlash, ta'limga tashkiliy sharoitlar tizimini o'zgartirish, o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etishning usul, vositalari hamda shakllarini innovatsion qayta qurish, innovatsion ta'limga asosiy maqsadi, innovatsion ta'limga pedagogik-psixologik yondashuv bilan bog'liq faktlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Informatsion jamiyat, innovatsion texnolgiya, ta'litmizimi, kompetentlik, oliy ta'lismuassasasi, o'quv jarayoni, innovatsion qayta qurish, pedagogik-psixologik yondashuv, ta'lismuhiti.

### Педагогические и психологические аспекты организации инновационной среды в системе высшего образования

**Аннотация:** В статье анализируются факты, связанные с подготовкой специалистов высших учебных заведений, обладающих компетенциями в работе с современными технологиями, изменением системы организационных условий обучения, инновационной перестройкой методов, средств и форм управления и организации образовательного процесса, основной целью инновационного образования, педагогическим и психологическим подходом к инновационному образованию.

**Ключевые слова:** Информационное общество, инновационные технологии, система образования, компетентность, высшее учебное заведение,

образовательный процесс, инновационная реструктуризация, педагогико-психологический подход, образовательная среда.

## Pedagogical and psychological aspects of organizing an innovative environment in the higher education system

**Annotation:** This article analyzes the facts related to the training of specialists from higher education institutions who are competent in working with modern technologies, changing the system of organizational conditions of education, innovative restructuring of methods, means and forms of management and organization of the educational process, the main goal of innovative education, and the pedagogical and psychological approach to innovative education.

**Keywords:** Information society, innovative technology, educational system, competence, higher education institution, educational process, innovative restructuring, pedagogical and psychological approach, educational environment.

**Kirish.** Informatsion jamiyat taraqqiyoti, uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi deformatsiyalari, siyosiy tizimlarning global o‘zgarishlar bilan bevosita muvofiqlashuvi, davlat tizimining barcha sohalarini zamonaviy innovatsion texnolgiyalar bilan jihozlash zaruriyatining ortib borishi mamlakat ta’lim tizimiga pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etish hamda mavjud texnologiyalar bilan ishslash kompetentligiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash- davr talabi ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur jarayon, oliy ta’lim muassasalaridan, zamonaviy texnologiyalar bilan ishslash kompetentligiga ega mutaxassislarni tayyorlash, ta’limning tashkiliy sharoitlar tizimini o‘zgartirish, o‘quv jarayonni boshqarish va tashkil etishning usul, vositalari hamda shakllarini innovatsion qayta qurishni taqozo etadi.

Innovatsion ta’limning asosiy maqsadi, ta’lim oluvchilarni ongi va tafakkuri hamda dunyoqarashini har tomonlama rivojlanishiga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Shuningdek, innovatsion ta’limda inson omiliga e’tibor qaratilib, o‘quv jarayonining markazida ta’lim oluvchining maqsad va manfaatlariga ustuvorlik beriladi. Mazkur ta’limda, o‘rganilayotgan fanning mazmuni, o‘quv jarayonining usullari, vositalari va shakllari asosan tashabbuskor, faol, qimmatli maqsadlarga erishishga intilishning turli xil rivojlanishiga qaratilgan bilim hamda shaxsning rivojlanishi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan pedagogik-psixologik yondashuvlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Oliy ta’limda shakllantiriladigan innovatsion ta’lim muhiti mutaxassislarni tayyorlashda tanqidiy fikrlash, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, mavjud faktlarni tahlil

qilish, sohaga doir turli xil muammo yechimlarini kreativlik asosida bartaraf etish kabi kasbiy kompetentlikning pedagogik-psixologik omillarini shakllantirish bilan tavsiflanadi.

Innovatsion ta’lim muhitida o‘quv jarayoniga tizimli yondashish, o‘qitiladigan fanning konseptual asoslarini o‘zlashtirish, ta’lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini rivojlantirish hamda shaxsning adekvat qadriyatlar sohasiga e’tibor qaratishi va uning ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik omillar muvofiqlashuvini ta’minlash taqozo etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** M.V.Klarin ilmiy mulohazasiga ko‘ra informatsion jamiyatda ta’lim sohasidagi innovatsion tendensiyalar asosan ikki yo‘nalishda rivojlanadi. Uning nuqtai nazaricha, birinchi yo‘nalish o‘qitishning reproduktiv uslubi bo‘lsa, ikkinchisi yo‘nalish an’anaviy o‘quv jarayonini o‘zgartirish bilan tavsiflanadi [5]

Biz ham mazkur ilmiy yondashuvga qo‘shilamiz. Darhaqiqat bugungi kunda o‘qitishning reproduktiv uslubiga yo‘naltirilgan an’anaviy ta’lim doirasida innovatsiyalarni joriy etish, pedagogik texnologiyalarni modernizatsiya qilish va o‘qitish usullarini takomillashtirish davr talabidir. Innovatsion ta’lim muhitini yuzaga chiqarish, yuqori kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash va ta’lim samaradorligiga erishish, eng avvalo, o‘quv texnologiyalarini takomillashtirish hamda mazkur jarayonni algoritmlash orqali erishiladi.

Ta’lim sohasidagi an’anaviy o‘quv jarayonni o‘zgartirish uni innovatsion ta’lim texnologiyalarga muvofiqlashtirish shaxsga yo‘naltirilgan individual ta’lim mazmunini o‘zida aks ettirib, ijodiy faoliyatga yondashuvni amalga oshirishni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, ta’lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik yondashuv mazmunini o‘zida ifodalaydi.

Ta’limga innovatsion yondashuv, ta’lim oluvchilarning kognitiv bilim sohasini rivojlantirib, o‘quv mashg‘ulot jarayonida taqdim etilgan ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, mutaxassis yondashuviga muvofiq muhokama qilish, o‘z nuqtai nazarini yetarli va asosli argumentlar bilan himoya qilish kompetentligini shakllantiradi. Shuningdek, innovatsion ta’lim muhiti, talabalarning individual xususiyatlarini rivojlantirib, o‘quv jarayonida aqliy hujum texnikasi hamda sinektika metodlaridan maqsadli foydalanish ko‘nikma va malakasini shakllantirishga xizmat qiladi hamda jamoaviy qaror qabul qilish va bir maqsad sari muvofiqlashgan harakatlar kombinatsiyasini ta’minlaydi.

Innovatsion ta’limni tashkil etish va uning pedagogik-psixologik omillari zamonaviy o‘quv usullari va ta’lim texnologiyalari, ta’lim jarayonidagi nostandard yondashuvlar, guruhiy munozaralar, muayyan hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, o‘quv jarayonni modellashtirish, talabalarning o‘zaro munosabatlari, amaliy faoliyatning

konstruktiv loyihalarini ishlab chiqish va himoya qilish hamda kreativlik asosida ta’lim samardorligi bilan tavsiflanadi.

V.M.Allaxverdov nuqtai nazaricha, pedagogik innovatsion faoliyatning mazmuni, usul va vositalari professional mutaxassislarni tayyorlash bilan izohlanadi. Shuningdek, uning ta’kidlashicha, intellektual qobiliyat chegaralarini baholash uchun imkoniyatdan tashqari aqlga ega bo‘lish kerak, bu aql hech kimga berilmaydi [1].

Yu.A.Karpova nuqtai nazaricha, ta’limdagi innovatsion faoliyat - bu reproduktiv faoliyatning muntazam vositalari, usullari va texnologiyalarini o‘zgartirishga qaratilgan jarayondir. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatga o‘tishdan oldin shaxsning motivatsion va semantik sohasini o‘zgartirishga, faoliyatning yangi qadriyatlari, motivlari, ma’nolari va maqsadlarini yaratishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayon ta’lim sifati va samaradorligini oshirib, ta’lim berishning pedagogik-psixologik jihatdan chegaralarini kengaytirishga olib keladi hamda innovatsion ta’lim faoliyat vositalari arsenalini o‘zgartirishni talab qiladi. Natijada innovatsion faoliyat ichki muvofiqlashgan ta’lim faoliyatini ta’minlaydi hamda doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda sub’ektning kasbiy barqarorligini ichki motvatsion mexanizmlar bilan barqarorlashtiradi[4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani tayyorlashda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan. Innovatsion ta’lim muhitida ta’lim oluvchining yangilikka tayyorligi uning o‘zida o‘zgarishlarni anglash qobiliyatini rivojlanganlik omillari bilan muvofiqlashganlikni taqozo etib, o‘rganish samaradorligi shaxsning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish munosabati va motivatsion intilish darajasiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ta’lim oluvchining kasbiy muvaffaqiyatga bo‘lgan munosabat, motivatsiya va intilishlari uning ta’lim va bilim faoliyatidagi umumiyo moyilligining asosi bo‘lsa, o‘qituvchining innovatsiyalarga tayyorlik darjasini, uni aniqlash, ta’lim oluvchilarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan qanchalik samarali foydalanishi bilan izohlanadi.

**MUHOKAMA.** Innovatsion ta’lim muhiti, pedagoglarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan hamda ta’lim oluvchilarga samarali bilim berishning pedagogik-psixologik omillari bilan uyg‘unlashishni yuzaga chiqaradigan jarayondir, degan mualliflik ta’rifini berishga asos bo‘ladi.

Mazkur jarayon, talabalarning ijodiy va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish, mutaxassislikka doir bilim va ko‘nikmalarni oshirish uchun ta’lim maqsadlariga erishish motiv va imkoniyatini zamonaviy texnologiyalar bilan muvofiqlashtirib borishni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim tizimi o‘quv va kognitiv faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi talabaning professional kasbiy bilimlarni puxta egallash, amaliyotda kreativ faoliyatni namoyon etish, kasbiy va shaxsiy faoliyatda ijtimoiy maqomini bosqichma-bosqich oshirib borish kabi uzoq muddatli maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni kasbiy bilimlarni har tomonlama puxta egallashga undaydi. Mazkur o‘quv jarayoni, talabalarni kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashning innovatsion texnologiyalari bilan tanishish imkoniyatini oshirib, talabalarni innovatsion texnologiyalardan nafaqat ta’lim sohasida, balki insonning har qanday faoliyatida ham maqsadli foydalanish kompetentligini shakllanishiga xizmat qilib, ijtimoiy akademik bilimlar kombinatsiyasi hamda ijtimoiy mobillilik muvaffaqiyatiga erishish motivini rag‘batlanirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jamiyatimiz yoshlar ma’naviy va madaniy mobilligi, ongi va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ilmiy nuqtai nazardan har tomonlama chuqur o‘rganish, tashqi ta’sirlardan himoya qila oladiga ijtimoiy-psixologik mobil “izalyatsion” mexanizmni yaratish davr talabi bo‘lib qolmoqda [3].

Informatsion jamiyatda globallashuv tendensiyasining ustuvorligi nuqtai nazarida ta’kidlashimiz lozimki, oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilarni innovatsiyalarga tayyorlashda ularning individual psixologik xususiyatlarini psixodiagnostikaga asoslangan holda aniqlash hamda psixologik xususiyatlariga mos keladigan innovatsion texnologiyalarni tanlash va amaliyotda qo‘llash yuzasidan amaliy pedagogik-psixologik xizmatlarni joriylantirish maqsadga muvofiq.

Bizningcha, innovatsion tamoyillarga muvofiqlashgan mazkur motivatsion ikki faktorli nazariya formulasi amaliyotda quyidagicha namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim muhiti va mehnat sharoitlari + rag‘batlantiruvchi omillar = qoniqish holati. Oliy ta’lim muhiti va ish sharoitlari rag‘batlantiruvchi omillar bilan muvofiqlashtirilmasa, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriylantirish bilan bog‘liq yondashuvlar samaradorligi va natijasi = nol bilan izohlanadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Shu nuqtai nazardan, ta’limda innovatsion muhitni tashkil etishing pedagogik-psixologik omillarini ta’minlashda hamda uni to‘liq quvvat bilan ishlashda yuqorida biz tavsiya etgan formulaga muvofiq amaliyotga realizatsiya etish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini umumiy va xususiy jihatlaridan maksimal foydalanish imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Ikki faktorli intellekt nazariyasi Charlz Spirmannidan yaratilgan aql nazariyasi bo‘lib, uning asosiy xarakterli xususiyati barcha intellektual faoliyatga aqlning ikkita omili: umumiy ("G") va maxsus ("S") ta’sir qiladi [2].

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim muhiti va o‘quv jarayoni subyektlari o‘rtasidagi psixologik-pedagogik hamkorlik, oliy ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan ta’lim subyektlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim muhitida psixologik-pedagogik hamkorlik ta'lim subyektlarining intellektual va ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirib, o'zlar va kasbiy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan iste'dodni namoyon etish imkoniyatini yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dvuxfaktornaya model intellekta Charlza Spirmena / <https://vikent.ru/enc/2109/>
2. Eshnayev N.J. Globallashuv sharoitida innovatsion ta'lim muhitini tashkl etish va uning mobilligini ta'minlash , umumiy o'rta ta'lim maktabalarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Toshkent-2023. - B.336-338.
3. Karpova Yu.A. Gotovnost professionala k innovatsionnoy deyatelnosti kak problema sovremennoogo obrazovaniya vzroslix // Innovatsionnoe obrazование взрослих. M., 1996.
4. Klarin M.V. Innovatsii v obuchenii: metafori i modeli. Analiz zarubejnogo opita. M., 1997.